

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



2019 yil yanvar-iyun oyida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Sanoat ishlab chiqarish

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi – 2210,7 mlrd. so'm

Sanoat ishlab chiqarish indeksi – 105,0 %

Iste'mol tovarlari

Iste'mol tovarlari hajmi – 970,3 mlrd. so'm

O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'shish sur'ati – 104,3 %


Kichik biznes

Sanoat mahsulotlarida kichik biznesning ulushi – 59,7 %

Iste'mol tovarlarida kichik biznesning ulushi – 81,9 %

1-диаграмма

2019yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, ulushi %da



Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **(B-seksiya)**.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) **(C-seksiya)**.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2006,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,8 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 34,1 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,8 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 11,8 %, kiyim ishlab chiqarish 7,4 %, tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)da asosiy turdagi sanoat mahsulotlari tarkibi



2-jadval

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yil yanvar-iyun oylarida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'sish sur'ati, % da
Paxta chigiti, t.		
39841,0		95,9
Paxtadan yigirilgan ip, t.		
7722		189,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.		
29415,7		103,1
Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona		
496		48,6
O'simlik yog'l (tozalangan), t.		
7047		87,3
Paxta tolasi, t.		
24324		107,2

2019 yil yanvar-iyun oylarida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'sish sur'ati, % da
Paxta linti, t.		
2053,0		106,8
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan yuzaki aktiv vositalar, yuvish va tozalovchi vositalari, t.		
590,0		128,3
Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona		
386,4		109,1
Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.		
1212		145,0

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **(D-seksiya)**.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 115,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,2 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 104,4 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish. **(E-seksiya)**.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning **(E-seksiya)** mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 1,3 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,4 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-iyun oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2210,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,0 % ni tashkil etdi.


2-diagramma

2019yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining xajmi, mlrd. so'm



3-diagramma


Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarkibi, % da



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shaxri (52,6 %) va Do'stlik (12,4 %), Paxtakor (6,2 %), Sh.Rashidov (4,8 %), Zomin (4,8 %), Zarbdor (4,0 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.


4-diagramma

2019 yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'ri, %da




5-diagramma


2019 yilning yanvar-iyun oylarida Respublika tasarrufidagi va Xududiy korxonalarining jami sanoat ishlab chiqarishdagi hajmi, mlrd. so'm



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 970,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,3 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 43,9 % ni tashkil etdi.




2018 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 66,1 % dan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 68,2 % ga ko'paygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 1626,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shaxrida 6633,2 ming so'mni, Do'stlik tumanida 4239,9 ming so'mni, Paxtakor tumanida 1878,9 ming so'mni, Arnasoy tumanida 1372,3 ming so'mni tashkil etadi.

8-diagramma

2019yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari,
ming so'm






Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 iyul holatiga 41 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 578,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

9-diagramma

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd. so'mda




10-diagramma

Faoliyat yuritayotgan horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni, birlik



O'tgan yilning shu davriga i horijiy investitsiya ishtiroki korxonalar 30taga ko'payga




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 1319,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 59,7 % ni tashkil etdi.


11-diagramma

Jami sanoatda kichik biznesning ulushi, foiz hisobida



12-diagramma

2019yil yanvar-iyun oylarida hududlar miqyosida jami sanoat hajmida kichik biznes ulushi, %da




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 iyul holatiga 2693 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 935 tasi Jizzax shaxrida, 571 tasi Sharof Rashidov, 239 tasi G'allaorol, 207 tasi Zomin, 119 tasi Forish, 104 tasi Zarbdor, 100 tasi Paxtakor, 91 tasi Do'stlik, 80 tasi Baxmal, 78 tasi Mirzacho'l, 67 tasi Zafarobod, 56 tasi Arnasoy, 46 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.


13-diagramma

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni , birlikda



2019 yil 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

14-diagramma



2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 91 ta horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda, jumladan Jizzax shaxarda 45 ta, Forish tumanida 11 ta, Sharof Rashidov tumanida 7 ta, G'allaorol tumanida 7 ta, Do'stlik, Zomin, Paxtakor tumanlarida 4 tadan, Zafarobod, Yangiobod, Baxmal tumanlarida 2 tadan va hamda Mirzacho'l, Zarbdor, Arnasoy tumanlarida 1 tadan horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-83-47